

## QO‘QON XONLIGI TARIXIGA YANGICHA MULOHAZALAR

*Juliboyev Alimardon Abdulmajid o‘g‘li<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Qo‘qon shahri yaqinida joylashgan tarixiy-madaniy yodgorlik Shoxmasadbij qo‘rg‘oni tarixi, Qo‘qon xonligi tarixi bilan bog‘liq bo‘lgan “Oltin beshik” rivoyatiga oid masalalar yoritiladi. XIX asr boshi Qo‘qon saroy tarixchisi Mushrif Isfaragiy fors tilida yozilgan va Umarxonga bag‘ishlagan “Shohnomai Umarxoniy” nomli tarixiy asarida birinchi marta “Oltin Beshik” afsonasini keltirgan edi. Shu asardan boshlab Qo‘qondagi boshqa tarixchilar ham mazkur afsonani o‘z asarlarida keltira boshlaydilar. Shu suloladan bo‘lgan tarixiy shaxs Shohmasadbij ibn Abdulqosim hayoti ham o‘sha zamon manbalari asosida yoritilib, yangi tadqiqotlar bilan taqdim etilmogda.

**Kalit so’zları:** Shohmasadbij maqbarasi, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ming urug‘i, Targ‘ova, Tangriqulbiy, Oltin beshik, Qodiriya sulukati.

O‘rta Osiyo marvaridi bo‘lmish Farg‘ona vodiysi ilohiylik nuri bilan munavvar bo‘lgan tabarruk o‘lkadir. Agar chuqurroq muloxaza yuritsak, ushbu tabarruk zamin uzra qadam bosishga ham iymanib qolamiz. Bunda qanchadan-qancha insonning, shu jumladan, ulug‘ shaxslarning xoklari yotibdi. Nachora, xayotiy zarurat ekan bu muqaddas xokni bosib o‘tishga majburmiz. Bu - taqdiri ilox, bu - xayot falsafasi. Ko‘plab ulug‘ zotlar o‘z xoklarining tuproqqa qo‘shilib ketishi uchun o‘zlariga maqbara, sag‘ana qurmaslikni vasiyat qilib ketganlar. Ayrim ulug‘larni vafotidan so‘ng esa, ularning vasiyatidan qat‘iy nazar, xoklari sag‘ana va maqbaralar panoxiga olingan. Bunday panox vositalari shakliga, mavqeyiga va boshqa xususiyatlarga qarab “Hazira”, “Daxma”, “Maqbara” kabi atamalar bilan nomlanadi. Ba’zan xalqda, ba’zi bir aloxida shaxslani maqbarasiga nisbatan “Mozor” degan atama ham qo‘llanilmoqda. Mazkur tushunchalar o‘rtasida katta farq bor. Masalan, Maqbara - aloxida ulug‘langan qabr ma’nosini bildirsa, Mozor - “Margzor”, ya’ni o‘likzor, “o‘liklar maskani” degani bo‘lib umumiy qabriston ma’nosini angalatadi.

Vodiyya yuzlab ziyoratgoxlar, maqbaralar va qutlug‘ qadamjolar mavjud. Ularning kichik bir qismi xukmdorlar, sarkardalar, allomalar, shoirlar va yirik mansabdorlarga qarashli bo‘lsa, aksariyat qismi tasavvuf oqimining yirik namoyondalari, aziz avliyolarning maqbara qo‘rg‘onlaridir. Shunday qo‘rg‘onlardan biri Shohmasadbij qo‘rg‘oni xisoblanadi. Shohmasadbij qo‘rg‘oni Xo‘qandi - Latifni shimoliy - g‘arbiy tomoni, yani Dang‘ara tumanining Chomoch qishlog‘i hududida joylashgan. Mazkur mintaqadagi Aravon, Yermajid, Qirqlar, Minglar, Targ‘ova, Saroy, Kala, Taptiqsaroy va boshqa qishloqlar qadimgi manbalarda eslatiladi. Ularning har biri haqida aloxida katta-katta tazkira yozish mumkin. Ularning nomlariyoq, tarixchilar, tabiatshunoslar, o‘lkashunoslari uchun ko‘pgina ma’lumotlar beradi. Jumladan, “Targ‘ova” atamasi nimani anglatshi mumkin? Nomning asl shakli “Targ‘oba”dir. “Foba” qadimi turkiy tillarda namchil, zakkash va qorong‘u to‘qay, zax yerdagi chakalakzor, o‘tib bo‘lmas changalzor ma’nolarida keladi. Unga nam, xo‘l, suvli ma’nolarini anglatadigan “Tar” qo‘sishimchasi qo‘shilgandan so‘ng bu joyning namchillik xususiyati yanada kuchayadi. Demak, Targ‘oba - namchil, zax, tagi qurimaydigan qorong‘u to‘qay ma’nosini anglatadi. “Tar” so‘zi esa so‘g‘d tilidan o‘tgan bo‘lib, hozirgi o‘zbek tilida ham qo‘llaniladi. Jumladan, xalvoytar - xolvai-tar, ya’ni suyuq xalvo, suvli xalvo, xo‘l xalvo. Shohmasadbij qo‘rg‘oni ham ana shu Targ‘ova qishlog‘iga yaqindir. Qo‘rg‘onning va u joylashgan Chomoch qishlog‘ining tarixi “Oltin beshik”

<sup>1</sup> QDPI Tarix fakulteti talabasi



rivoyati bilan bog‘liqdir. Rivoyatda aytilishicha, Zaxiriddin Muxammad Bobur mag‘lubiyatidan so‘ng, ya’ni 1512-yil Mavarounnaxrni Farg‘ona orqali Hindistonga ketayotgan paytda, uning xotinlaridan biri o‘g‘il tug‘adi. O‘sha paytdagi qo‘rqinch va g‘ulg‘ula bolani tashlab ketishga majbur qiladi. Uni qimmatbaxo buyumlar bilan jixozlangan beshikka solib, xizmatkorlaridan birini bolaga qarab turish uchun qoldirib ketadi. O‘sha paytda Qo‘qon atrofidagi Saroy, Qala va Targ‘ova qishloqlarining miroblari suv ochib yurganlarida ularni tanib qolishadi. Miroblar o‘zaro chek tashlab ularni bo‘lishib olishadilar. Xizmatkor Saroylik mirobga, beshik va qimmatbaxo buyumlar Kapalik mirobga, bola esa Targ‘ovalik mirobning chekiga tushadi. Mirob unga Oltinbeshikxon deb ism qo‘yadi. Oltinbeshikxon ana shu Targ‘ova qishlog‘ida ulg‘ayadi. Voyaga yetgan Oltinbeshikxonga har bir urug‘dan bittadan qizga uylanishga imkon beradilar. Ming urug‘idan bo‘lgan xotini unga o‘g‘il tug‘ib beradi. Unga Tangriyor deb ism qo‘yadilar. Oltinbeshikxonning avlodlari yuqoridagi Targ‘ova qishlog‘ida istiqomat qilgan bo‘lib, ana o‘sha avlodlaridan biri Shohmasadbiiydir.[1.-B. 83].

Shohmasadbiiy ibn Abdulqosim ibn Muhammad Amin ibn Sulton Xudoyorxon ibn Tangriyor Sulton ibn Oltinbeshikxon taxminan xijriy 1010-1015 (milodiy 1601-1606 y.) yillarda Targ‘ova yaqinidagi qo‘rg‘onchada tavallud topdilar. U kishining asl nomlari Tangriqulibiy bo‘lgan. Besh yoshlarida savod chiqarib, o‘n yoshlarida Qur‘oni karimni xatm qilganlar. Asosan, diniy ilmlar va tasavvuf adabiyotini taxsil etganlar. Tasavvufga yoshlikdan berilib, umrlarining oxirigacha, uning deyarli barcha bosqichlarini bosib o‘tganlar. Tasavvuf bobidagi ustozlari mashhur so‘fiy Mavlono Lutfullox Chustiy edilar. Ular ko‘p vaqtlarini birgalikda o‘tkazar edilar. Gox Tangriqulibiy Chustga borib, gox Mavlono Targ‘ovaga kelib har ikki so‘fiy vaqtalarini tasavvuf ilmini boyitish, toat-ibodat va zikri-samo bilan o‘tkazar edilar. Ularning yemishlari ham darveshona bo‘lib, asosan sabzavotlar, ko‘katlar va jurgot (qatiqning bir turi)dan iborat bo‘lar edi.[1. -B. 84]. Mavlono Lutfullox Chustiy o‘z shogirdlaridagi iste’dod, Alloxga muxabbat, intilish, valiylik xususiyatlarini ko‘rib, Tangriqulibiyga “Shohmasadbiiy” deb taxallus bergenlar. Ushbu nom teran mazmun kasb etib “Allohga yaqin bo‘lish istagida tunni bedor o‘tkazib zikr-samo qiluvchilar shohi” degan ma’noni anglatadi. Shuning bilan u kishining nomlari Shohmasadbiiya aylanib “Tangriqulibiy” degan ismlari odamlar xotirasidan ko‘tarilib ketgan. Mavlono Lutfullox Chustiy vafotlaridan so‘ng bu deparada mavqeyi baland bo‘lgan Qodiriya sulukatiga Shohmasadbiiy shayx bo‘lib qoladilar. Shohmasadbiiydan bir o‘g‘il va uch qiz dunyoga kelgan. O‘g‘illarining nomlari Shoxruxbiy bo‘lib tarixda “Shoxruhbiyi avval” ya’ni, birinchi Shoxruxbiy nomi bilan mashhur. Ushbu Shoxruxbiydan Shodibiy, u kishidan Ashurbiy, u kishidan esa Shoxruxbiyi soniy (Ikkinchi Shoxruxbiyi) dunyoga kelib, Qo‘qon xonligiga asos solganlar. Shohmasadbiiy taxminan xijriy 1080-1085 (milodiy 1671- 1676 y.) yillar oralig‘ida vafot etganlar. Vafotlaridan sung vasiyatlariga amal qilib hozirgi qo‘rg‘on ichidagi sayxon yerga dafn qilganlar. Keyingi avlodlari bobolarini ulug‘lab, u yerga katta maqbara qurdirganlar. Maqbara ham sufiyona tarzda oddiy va sodda xolda edi. Maqbara yoniga keyinroq yirik masjid binosi qurilgan.

Shohmasadbiiy xayotligi paytda hozirgi qo‘rg‘on hududida o‘ta chiroyli bog‘ barpo etib, uni aloxida e’tibor bilan nazorat qilgan. Bog‘da, o‘sha paytning nodir mevalari, gullari, xatto, ba’zi bir giyoxlar ham o‘stirilgan. Tarixiy rivoyatga ko‘ra, qo‘rg‘onning maydoni dastlab 200 tanob (17 hektarga yaqin) hududni egallagan. Chor Rossiyasi xukmronligi paytda uning ko‘p joylariga paxta ekishgan va qo‘rg‘on kichrayib ketgan. Oradan vaqtlar o‘tib xalq talaffuzida “Shohmasadbii-Shamashbiy-Chamachbiy” tarzida o‘zgarib ketgan. Qishloq va atrof axli marxum Shohmasadbii xotirasini doimo yodda tutib, u kishining ravzalari va masjidni baxoli qudrat ta’minlab kelmoqdalar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, boy tarixga ega me’rosimizni o‘rganish, bobolar ruhini shod etish bilan barobardir. Mustaqillikka erishganimizdan keyin tariximiz haqidagi haqiqatlarni aytish imkoni tug‘ildi. Chor xukumati xukmronligi paytda yakson qilingan muqaddas qadamjolar mustaqillik tufayli qayta tiklandi. O‘tmishimizni o‘rganish, uning boy tarixini butun dunyoga ko‘rsatish payti keldi. Axir, biz kimligimizni bilishimiz darkor. Zero, odamzod borki, o‘z avlod ajdodi kimligini nasl nasabi haqida bilishni istaydi.



### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Бейсембаев Т.К. Тарихи Шохрухи как исторический источник. Алма-ата, 1987.
- 2.Бабаджанов Б.М. Кокандское ханство: власть, политика, религия. Токио- Ташкент. 2010.
- 3.Воҳидов Ш. Қўкон хонлигида тарихнависликнинг ривожланиши. XIX аср XX асрнинг бошлари. Тарих фан. докт. дисс. Т.: ЎзФаШИ. 1998.
- 4.Вахидов Ш. О двух редакциях сочинения Аваз Мухаммада Аттара Хуканди. //Адабий мерос .1989.
- 5.Набиев Н. Из истории Кокандского ханства. Т.: Фан, 1973.
- 6.Бобобеков Х. Қўқон тарихи. Ташкент.: 2006.

